


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

60810300 - *Qishloq va suv xo'jaligida texnik servis bakalavriat*
ta'lim yo'nalishining malaka talablari

Toshkent-2023



ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

«Toshkent irrigasiya va qishloq xo'jaligini mexanizasiyalash muhandislari instituti» Milliy tadqiqot universiteti;

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «21» 08 dagi 367 sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

| | | |
|--------|---|----|
| 1. | <i>60810300 - Qishloq va suv xo'jaligida texnik servis</i> bakalavriat ta'lim yunalishining umumiy tavsifi | 4 |
| 1.1. | Qo'llanish sohasi | 4 |
| 1.1.1. | <i>60810300 - Qishloq va suv xo'jaligida texnik servis</i> ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanishi | 4 |
| 1.1.2. | Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari | 4 |
| 1.2. | <i>60810300 - Qishloq va suv xo'jaligida texnik servis</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi | 4 |
| 1.2.1. | <i>60810300 - Qishloq va suv xo'jaligida texnik servis</i> ta'lim yunalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari | 4 |
| 1.2.2. | <i>60810300 - Qishloq va suv xo'jaligida texnik servis</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari | 5 |
| 1.2.3. | <i>60810300 - Qishloq va suv xo'jaligida texnik servis</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari | 5 |
| 1.2.4. | <i>60810300 - Qishloq va suv xo'jaligida texnik servis</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari | 5 |
| 2. | <i>60810300 - Qishloq va suv xo'jaligida texnik servis</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar | 8 |
| 2.1. | Umumiy kompetensiyalar | 8 |
| 2.2. | Bibliografik ma'lumotlar | 11 |
| | Kelishuv varag'i | 12 |
| | Kelishuv dalolatnomasi | 13 |

1. 60810300 - Qishloq va suv xo'jaligida texnik servis bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi

60810300 - Qishloq va suv xo'jaligida texnik servis bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi.

1.1.1. 60810300 - Qishloq va suv xo'jaligida texnik servis ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanishi.

Malaka talabi **60810300 - Qishloq va suv xo'jaligida texnik servis** ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

– mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

– ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari:

– bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestasiya komissiyalari:

- talimni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy talim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditasiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60810300 - Qishloq va suv xo'jaligida texnik servis ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60810300 - Qishloq va suv xo'jaligida texnik servis ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.

60810300 - Qishloq va suv xo'jaligida texnik servis "Qishloq xo'jaligi" ta'lim sohasiga oid yo'nalish bo'lib, xalqaro tajribalarga muvofiq qishloq xo'jalik texnikalari servis sohasini rivojlantirish, istiqbolini belgilashga hamda xizmatlar jarayonida intellektual muhandislik tizimlarini qo'llash; qishloq xo'jalik texnikalaridan foydalanish sarf xarajatlarni kamaytirish, ularning foydalanish samaradorligini oshirish bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

Jumladan: O'zbekiston Respublikasi Davlat boshqaruvi organlari, Vazirlar Mahkamasi qoshidagi tashkilotlar, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi va ularning tasarrufidagi tashkilotlarda, qishloq xo'jaligi va meliorativ texnikalariga servis xizmat ko'rsatish jarayonlari, texnologiyalar va texnik vositalari, ulardan samarali foydalanish, texnik servisni amalga oshirish, texnik servisdagi logistik jarayonlarni tashkillashtirish uchun inson faoliyati vositalari, usullari bilan bog'liq kasbiy sohalarni majmuini qamrab oladi.

1.2.2. 60810300 - Qishloq va suv xo'jaligida texnik servis ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining ob'ektlari:

- servis sohasi korxonalarida boshqaruvga intellektual tizimlarni qo'llash va qishloq va suv xo'jaligi texnikalaridan foydalanish samaradorligini oshirish jarayonlari;
- qishloq va suv xo'jaligi texnikalarida intellektual tizimlarni qo'llash orqali uning ish unumi va jozibadorligini oshirish jarayonlari;
- qishloq va suv xo'jaligi texnikalari ishlab chiqarishda va ulardan foydalanishda bort axborot tizimlarini takomillashtirish va xavfsizligini oshirish jarayonlari;
- mutaxassisligiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar yaratish jarayonlari;
- servis tashkilot va korxonalarining zamonaviy boshqaruv tizimini tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, intellektual muhandislik tizimlarini qo'llagan holda boshqaruv samaradorligini oshirish, mehnatni rag'batlantirish jarayonlari.
- davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar, klasterlar), ishlab chiqarish birlashmalari, servis markazlari, texnik xizmat ko'rsatish stansiyalari va boshqalar:
- iqtisodiyotning turli soxa va tarmoqlarida tashkilot, korxonalar va muassasalar samaradorligi va natijadorligini oshirish jarayonlari;
- qishloq va suv xo'jaligi ishlab chiqarishida yuqori unumdorlikka ega texnologik jarayonlar, mashinalar va jihozlar, ularni nazorat qilish, rostlash va boshqarish tizimlari, sozlash, foydalanish usullari va vositalari, shuningdek nazorat, rostlash va boshqarish tizimlarining loyiha hujjatlari;
- servis, texnik-texnologik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha texnologik jihozlar, asbob-uskuna va moslamalar, takomillashtirilgan konstruksiyalari;
- qishloq xo'jaligi va meliorativ texnikalar, jihozlar va qurilmalar, ularga servis, texnik-texnologik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash jarayonlari.

Yo'nalish bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrlarning kasbiy faoliyat ob'ektlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Bo'lishi mumkin bo'lgan qo'shimcha va o'zgarishlar muayyan talim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejalarini ishlab chiqishda hisobga olinishi nazarda tutiladi.

- 60810300 - Qishloq va suv xo'jaligida texnik servis ta'lim ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriyat bitiruvchilari pedagogik kayta tayyorlashdan o'tganlar keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi. Bakalavriyatning kasb ta'limi yo'nalishlari bundan mustasno.

1.2.3. 60810300 - Qishloq va suv xo'jaligida texnik servis ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- ilmiy-tadqiqot faoliyati;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati.
- ishlab chiqarish faoliyati;
- foydalanish va servis xizmatini ko'rsatish faoliyati;
- loyihaviy-konstruktorlik faoliyati.

1.2.4. 60810300 - Qishloq va suv xo'jaligida texnik servis ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60810300 - Qishloq va suv xo'jaligida texnik servis ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va

turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Xizmat ko'rsatish-foydalanish faoliyatida:

– qishloq xo'jalik va meliorativ texnikalar, texnologik jihozlar va qurilmalardan foydalanish, servis, texnik-texnologik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini tashkil etish va amalga oshirish;

– qishloq xo'jalik va meliorativ texnikalar, texnologik jihozlar va qurilmalarga servis, texnik-texnologik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish;

– qishloq xo'jalik va meliorativ texnikalar, texnologik jihozlar va qurilmalarni sinash va kamchiliklarni bartaraf qilish;

– qishloq xo'jalik va meliorativ texnikalar, texnologik jihozlar va qurilmalarni ishlatish va ularga servis, texnik-texnologik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash metodlarini tanlash;

– qishloq xo'jalik va meliorativ texnikalar, texnologik jihozlar va qurilmalarning ish jarayonlari modellarini ishlab chiqish va tahlil qilishda hisoblash vositalaridan foydalanish;

– servis, texnik-texnologik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashda qo'llaniladigan vositalar, asbob-uskuna, jihozlarni bilish ularni amalda qo'llay olish;

– qishloq xo'jalik va meliorativ texnikalar, texnologik jihozlar va qurilmalarning ish sifati ko'rsatkichlarini aniqlash, baholash va xulosalar shakllantirish qobiliyatiga ega bo'lish;

– qishloq xo'jaligi va meliorativ texnikalarga servis ko'rsatish, texnik tashxis va ta'mirlash texnologiyalari, jihozlari va vositalarini qo'llash, texnologik jarayonlarni shakllantirish va tekshirish, loyihalash, texnik servis, ta'mirlash va detallarni tiklash, avtomatlashtirish qurilmalari, mikroprosessor va kompyuter texnologiyalari hamda dasturlashdan foydalanish qobiliyatiga ega bo'lish;

– inson sog'ligini va uning ishchanlik qobiliyatini saqlash, hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha usul va tadbirlarni ishlab chiqish;

– bir yoki bir nechta ishchi kasblar, xizmat lavozimlari bo'yicha vazifalarni bajarish.

Ekspertlik, nazorat va inspektorlik-auditor faoliyatida:

– qishloq va suv xo'jaligi texnologik jarayonlarini mexanizasiylash ishlarini ko'p variantli echimini ishlab chiqish va amalga oshirish;

– qishloq xo'jalik va meliorativ texnikalar, texnologik jihozlar va qurilmalarni yig'ish, sozlash, ishlatishga tayyorlash, samarali foydalanish bo'yicha ishlarni rejalashtirish va bajarish;

– mashinalar ishonchliligini baholash ekspertizasini o'tkazishda ishtirok etish;

– mashinalarga servis, texnik-texnologik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashning ilg'or hamda resurstejamkor texnologiyalarini aniqlash.

Ilmiy - tadqiqot faoliyatida:

– ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda mashina va jihozlarni yaratish, takomillashtirish va sinash, ulardan foydalanish hamda texnik vositalarini, tizimlarini, jarayonlarini, jihozlarni va materiallarni standartlashtirish bilan bog'liq tadbirlarda ishtirok etish;

– dehqonchilik, chorvachilik va dastlabki qayta ishlash texnikalarini tadqiq qilishda namunaviy metodikalar va texnik vositalarni qo'llay olish;

– ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarda energetik vositalar, qishloq xo'jaligi mashinalaridan foydalanishning zamonaviy usullari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

– mashina traktor agregatlarini boshqarishning zamonaviy usullari buyicha mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuklari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik

axborotlarni o'rganish va tizimlashtirish;

– qishloq xo'jalik ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llanilayotgan raqamli texnologiyalar va mashina traktor agregatlarini zamonaviy boshqarish usullarini o'zlashtirish dasturlarini tahlil qilish va qo'llay olish;

– namunaviy usullar bo'yicha eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish va ularning natijalarini tahlil qilishda ishtirok etish;

– qishloq xo'jaligida innovasion texnika va texnologiyalarni qo'llash sohasini rivojlanishini ta'minlovchi qishloq xo'jalik erlari va texnikalarini monitoring qilish va qishloq xo'jaligi texnikalari parkining optimal tarkibini asoslash, ulardan samarador foydalanish, boshqarish bo'yicha resurstejamkor texnologiyalar hamda mashinalar tizimini yaratishda ishtirok etish;

– sohaga oid ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni jamlash, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

– internet tarmog'idan samarali foydalanish, sohaga oid yangi ilmiy echimlar, uslublar, texnik vositalar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan uslubda tahlil qilish;

– loyihalar, ilmiy tadqiqot ishlanmalari va texnik echimlar ni tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish, tadqiqot natijalari va ishlanmalarini ishlab chiqarishga tatbiq etish.

Loyihaviy-konstruktorlik faoliyatida:

– qishloq xo'jalik va meliorativ texnikalar, ularning ishchi organlarini takomillashtirish, unifikatsiyalash maqsadida konstruktorlik takliflarini ishlab chiqish, servis, texnik-texnologik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash uchun zaruriy vositalar, asbob, uskuna, moslamalar zaruriy jihozlarni tanlash, bajariladigan ishlarni sifatini kafolatlovchi yangi texnologik jarayonlar uchun mashina, asbob-uskunalar, qism va detallarini ishlab chiqish, takomillashtirish va tanlash;

– qishloq xo'jalik va meliorativ texnikalar va ularning ishchi organlari va jihozlaridan foydalanish, servis xizmat ko'rsatish vositalarini loyihalash modellarni ishlab chiqish ;

– loyihaviy va me'yoriy-dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

– qishloq xo'jalik va meliorativ texnikalar va ularning ishchi organlariga servis, texnik-texnologik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash tizimining namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va qo'llash;

– mashinalarni yuqori unumdorlik bilan ishlashini ta'minlovchi usullarni ishlab chiqish;

– amaliyotda axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy metodologiyalarni, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

– qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyatida sifatni boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tadqiq qilish;

– qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishda bajariladigan texnologiyalar va texnik vositalarini maqbullik asosida tanlashda samaradorligi ko'rsatkichlarini hisoblash va baholash;

– ishlab chiqarishda hayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha mutaxassislariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va qo'llash;

– qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirishda amalga oshiriladigan texnologik jarayonlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mehnat vositalari va resurslarni rejalashtirish ;

– zamonaviy axborot texnologiyalar tizimini yaratish, ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
- kasbiy faoliyatga oid muammolar echimlarini amaliyotga tadbiiq etish;
- ishlab chiqarish jarayonida ish sifatini boshqarish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;
- birlamchi ishlab chiqarish zvenosi ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;
- ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini tahlil qilish.

2. 60810300 - Qishloq va suv xo'jaligida texnik servis ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi. axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatila mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish:
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- me'yoriy-xuquqiy xujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy
- faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- qishloq xo'jaligi va meliorasiya ishlarini mexanizasiyalashtirish jarayonlarida injenerlik hisoblari, algoritmlari va matematik modellarini qo'llay bilish;
- qishloq xo'jaligi va meliorasiya ishlarini bajarishda qo'llaniladigan qishloq xo'jalik va meliorativ texnikalari, ularning ish jihozlarini tuzilishini, ishlash jarayonini o'zlashtirish va tahlil bo'yicha qobiliyatga ega bo'lish;
- mashinalardan foydalanish jarayonlarini tahlil qilish, sintezlash va optimallashtirishni bilish;
- qishloq xo'jaligi va meliorasiya ishlarini bajarishda foydalaniladigan qishloq xo'jalik va meliorativ texnikalari va jihozlarini muhandislik hisoblari, algoritmlari va matematik ta'minotini ishlab chiqish;
- qishloq xo'jaligi va meliorasiya ishlarini bajarishda foydalaniladigan qishloq xo'jalik va meliorativ texnikalarga texnik xizmat ko'rsatish, ishchi jihozlarining almashuvi, ta'mirlash strategiyasini belgilash va qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv

rejasiga mantiqiy ketmaketligda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalvriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

2.3.1. 60810300 - Qishloq va suv xo'jaligida texnik servis ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

| O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat | Ajratilgan kredit |
|--|---|-------------------|
| Majburiy fanlar | 4890 | 163 |
| Tanlov fanlar | 1380 | 46 |
| Malakaviy amaliyot | 720 | 24 |
| Yakuniy davlat attestatsiyasi | 210 | 7 |

2.3.2. 60810300 - Qishloq va suv xo'jaligida texnik servis bakalvriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

| T.r. | Fanning malakaviy kodi | O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda | Kredit miqdori | Fan o'tiladigan semestr |
|------|------------------------|--|-------------------------------------|----------------|-------------------------|
| 1.00 | | Majburiy fanlar | 4890 | 163 | |
| 1.01 | XT1115 | Xorijiy til 1,2,3 | 450 | 15 | 1,2,3 |
| 1.02 | MAT1114 | Oliy matematika 1,2,3 | 420 | 14 | 1,2,3 |
| 1.03 | TIL1105 | O'zbek (rus) tili | 150 | 5 | 1 |
| 1.04 | OYT1104 | O'zbekistonning eng yangi tarixi | 120 | 4 | 1 |
| 1.05 | FAL1104 | Falsafa | 120 | 4 | 2 |
| 1.06 | FIZ1110 | Fizika | 150 | 5 | 3 |
| 1.07 | QXA1105 | Qishloq xo'jaligi muhandisligi asoslari | 150 | 5 | 3 |
| 1.08 | JTS1105 | Jismoniy tarbiya va sport | 150 | 5 | 2 |
| 1.09 | DIN1104 | Dinshunoslik | 120 | 4 | 3 |
| 1.10 | NM2105 | Nazariy mexanika | 150 | 5 | 4 |

| | | | | | |
|-------------|---------|--|-------------|------------|-------------------|
| 1.11 | MKT2105 | Materialshunoslik va konstruksion materiallar texnologiyasi | 150 | 5 | 4 |
| 1.12 | EYE2104 | Elektr yuritma va elektronika | 120 | 4 | 4 |
| 1.13 | SOA2105 | Standartlashtirish va o'zaro almashuvchanlik | 150 | 5 | 5 |
| 1.14 | MMN2105 | Mexanizm va mashinalar nazariyasi | 150 | 5 | 5 |
| 1.15 | GGM2105 | Gidravlika va gidromashinalar | 150 | 5 | 5 |
| 1.16 | MQ2105 | Materiallar qarshiligi | 150 | 5 | 6 |
| 1.17 | AT2105 | Axborot texnologiyalari | 150 | 5 | 6 |
| 1.18 | MDL3105 | Mashina detallari va loyihalash asoslari | 150 | 5 | 7 |
| 1.19 | MQM3110 | Meliorasiya va qishloq xo'jaligi mashinalari | 300 | 10 | 7,8 |
| 1.20 | TTV3110 | Traktorlar va transport vositalari | 300 | 10 | 7,8 |
| 1.21 | MTA3110 | Mashina traktor agregatlari ish unumini boshqarish | 300 | 10 | 8,9 |
| 1.22 | QXE3105 | Qishloq xo'jaligi mashinalari ergonomikasi | 150 | 5 | 9 |
| 1.23 | HFX3105 | Hayot faoliyati xavfsizligi | 150 | 5 | 9 |
| 1.24 | QXS4110 | Qishloq xo'jaligi va meliorativ texnikalar diagnostikasi va texnik servisi | 300 | 10 | 10,11 |
| 1.25 | QTM4110 | Qishloq xo'jaligi va melioratsiya texnikalari marketingi | 300 | 10 | 10,11 |
| 2.00 | | Tanlov fanlar | 1380 | 46 | |
| 2.00 | | <i>Tanlov fanlar (9 ta fan)</i> | 1380 | 46 | 4,5,6,7,8,9,10,11 |
| | | Jami | 6270 | 209 | |
| | | Malakaviy amaliyot | 720 | 24 | 6,9,12 |
| | | YAkuniy davlat attestatsiyasi | 210 | 7 | 12 |
| | | Jami | 930 | 31 | |
| | | HAMMASI | 7200 | 240 | |

2.4. Kvalifikasiya: muhandis-mexanik.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

bakalavriat, ta'lim sohasi, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat turi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, qishloq xo'jaligi va meliorativ texnikalari, qishloq xo'jaligi va meliorasiya ishlarini mexanizasiyalash, qishloq xo'jalik ishlab chiqarish kompleksi, mexanizasiya, mashina traktor agregat, foydalanish, tiklash, servis xizmat, texnik xizmat ko'rsatish; ta'mirlash; kasbiy psixologiya, kasbiy pedagogika, ta'lim texnologiyasi va metodikasi, fan dasturi, yakuniy davlat attestasiyasi, Davlat ta'lim standarti, axborot-resurs markazi, ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasasi, texnik soha, muhandislik ishi, nazorat-o'lchov asboblari, xizmat ko'rsatish-foydalanish, ekspertlik, nazorat va inspektorlik-auditorlik, ilmiy-tadqiqot va loyiha-konstruktorlik jarayoni, tashkiliy-boshqaruv, nazariy ta'lim, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, mustaqil ta'lim, Davlat attestasiyasi, mehnat bozori, kadrlar iste'molchilari, nazorat.